

MUZEYLARNING O'LKAMIZ TARIXINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

Islom Murodov Yaxshiboy o'gli,
Qarshi davlat universiteti Tarix fakulteti
3-kurs talabasi
E-mail: murodovislom200@gmail.com
tel: +998 90 883 78 18

Annotatsiya: Maqolada jamiyatimiz rivojida zamonaviy muzey menejmentining ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Avvalo, mazkur sohada yangi madaniy ehtiyojlarni shakllantiradigan va yangi mutaxassislarini jalg qilishni talab qiladigan madaniyat sohasidagi xizmatlar bozoridagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Shunki, hozirgi kunda muzey menejmenti taraqqiyoti madaniy xizmat bozoridagi o'rni bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: muzey menejmenti, strategiya, missiya, texnologiyalar, xizmatlar, turizm

ЗНАЧЕНИЕ МУЗЕЕВ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ НАШЕЙ СТРАНЫ

Аннотация: В статье говорится о значении современного музеиного дела в развитии нашего общества. В первую очередь анализируются изменения на рынке услуг в сфере культуры, формирующие новые культурные потребности в этой сфере и требующие привлечения новых специалистов. Поэтому развитие музеиного дела определяется его местом на рынке культурных услуг.

Ключевые слова: музейный менеджмент, стратегия, миссия, технологии, услуги, туризм.

THE IMPORTANCE OF MUSEUMS IN STUDYING THE HISTORY OF OUR COUNTRY

Abstract: The article talks about the importance of modern museum management in the development of our society. First of all, changes in the market of services in the field of culture, which form new cultural needs in this field and require the involvement of new specialists, are analyzed. Therefore, the development of museum management is determined by its place in the market of cultural services

Keywords: museum management, strategy, mission, technologies, services, tourism

Kirish

Mavzuning dolzarbliji: Mustaqil O'zbekistonda milliy qadriyatlami asrab-avaylashga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda muzeylamng jamiyat va insonlar hayotidagi o'rni beqiyosdir. O'tmishti, tarix tajribasini o'rgamshda ajdodlar yaratgan betakror moddiy va ma'naviy merosni asrashda hamda targ'ib etishda muzeylar faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. O'lkashunoslik manbalati orasida ilmiy va madaniy-ma'rifiy

muassasaga aylanib qolgan muzeylaming o'rni va ahamiyati kattadir. U moddiy va ma'naviy yodgorliklarning asl nusxalarini (arxeologiya, etnografiya, toponimikaga oid materiallami) to'playdi, saqlaydi va ilmiy asosda o'rganib tahlil qiladi hamda ularni ekspozitsiya sifatida ommalashtiradi. Bugungi kunda viloyat, shahar, tuman markazlarida, xalq ta'lim tizimida 1200 dan ortiq muzeylar bo'lib, ularning eng yiriklari poytaxtimizda joylashgan. Shu bilan birga, o'nlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san'at arboblarining uy muzeylari mavjud. Ushbu muzeylarda xalqimizning uzoq tarixidan hikoya qiluvchi, milliy mafkura va tafakkumi rivojlantiruvchi, yoshlarda milliy g'urur va iftixomi yuksaltirishga xizmat qiluvchi ekspozitsiyalar qo'yilgan. «Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatim uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va arfanalan, hayotiy qadriyatlaridan ayrim holda tasavvur etib bo'lmaydi»

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbekistonda muzeylarni yangi tarixi 1992-yildan boshlandi va shu yilning o'zida juda ko'plab yangi muzeylar tashkil etildi masalan buyuk o'zbek shoirlaridan biri Boborahim Mashrabning muzeyi Namanganda tashkil etildi, yana Xorazmda hofiz Hojixon Boltaboyev nomi bilan ataluvchi maqomchilar muzeyi, Urganch shahrida „Xorazm amaliy sanati va tarixi“ muzeyi, Buxoroda „Temirchlik muzeyi“, Samarqand viloyatida xalq kuychisi (baxshisi) Islom shoir Nazar o'glining uy muzeyi tashkil etildi. Keyinchalik 1993-yilda ham bir nechta muzeylar o'z ishlarini yo'lga qo'ydilar, ular orasida Toshkentda ochilgan O'zbekistondagi birinchi huquqshunos olima ayol Xadicha Sulaymonova muzeyi, mashhur raqqosa Mukkarramaxonim Turg'unboyeva muzeyi, mashxur cho'pon, mehnat qahramoni Jonboy Bashmanov muzeyi Navoiyning Tomdi tumanida tashkil etildi. 1994-yilda xalq rassomi Muhiddin Rahimov muzeyi, 1996-yilda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan O'zbekiston gidrometerologiya muzeyi, Salim Hamidovning uy muzeyi 1997-yilda tashkil etildi. E'tiborga loyiq voqealardan biri 1996-yil 1-sentabrda Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shon shuhrati muzeyi ochilishi bo'ldi, bu muzey O'zbekistonlik sportchilarning jahon miqyosida erishgan yutuqlari va ishtiroklari haqida ko'plab malumotlar beradi. O'zbekistonda muzeylar rivojiga 1998-yil 12-yanvarda qabul qilingan „Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risidagi“ qonun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi, shundan keyin muzeylar davlat muhofazasiga olindi va muzeylarni yanada rivojlantirish haqida dastur ishlab chiqildi va ular davlat budjeti tomonidan qo'llab quvvatlandi. 1998-yilda O'zbekmuzey tashkiloti tashkil etildi va 1999-yilda muzeylar hayotidan xabar beruvchi Moziydan sado jurnali tashkil etildi. Bu jurnal uch tilda O'zbek, Rus va Ingiliz tilida chop etila boshlandi. 1999-yilda O'zbekistonda davlat tasarrufidagi muzeylar soni 81 taga yetdi, ulardan 15 tasi tarix muzeyi, o'lkashunoslik muzeylari soni 23 tani va 10 ta badiiy muzeylar, 20 ta memorial, 8 ta adabiyot, 4 ta tibbiyot muzeylarini tashkil etildi. O'zbekistondagi 10 ta yirik shahar tarixiy shaharlar ro'yxatga olingan hisoblanadi masalan:Buxoro, Samarqand, Xorazm, Qo'qon va boshqalar. Ayniqsa Samarqand juda ham tarixiy obidalarga boy shahar hisoblanib har yili juda ko'p xorijiy mehmonlar tashrif buyuradi. Hozirda O'zbekiston madaniyat vazirligi tasarrufidagi muzeylar 1.350 ming eksponatga ega.

1991 yil 31 avgustda o'zbek xalqi uzoq vaqtlardan beri orziqib kutgan Mustaqillikka erishdi. Hayotimizning barcha sohalari kabi muzeylear faoliyatida ham katta tarixiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Vazirlar Maxkamasining 1992 yil 21 aprel qaroriga muvofiq O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi qayta tashkil etildi. Mohiyat – e'tibori bilan qaralganda, tom ma'nodagi zamonaviy va milliy muzeyga aynan shu sanada asos solingan edi. Prezident Islom Karimovning «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida» gi Farmoni (1998 yil 12 yanvar) esa muzeylarimiz rivojidan katta burilish yasadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tarix darslaridabadiiy adabiyot namunalaridan foydalanish ham tarixiy haqiqatni aniqlashtirishga, o'tmishning yorqin tasvirlarini yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, tarixiy voqealarni hikoya qilishda turli xil namoyishlarni qo'llash samrali hisoblanadi. Misol uchun, moddiy madaniyat obektlarining tasviriy ko'rinishlari, o'qitishning texnik(audio-vizual) vositalari shular jumlasidandir. Bularning barchasi o'quvchilarga tarixiy davrning muhitini tasavvur qilish, o'zini o'tmishda tarixiy hodisalar ichida his qilish tuyg'usini boshdan kechirish imkonini beradi. Hozirgi kunda O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi eng yirik ilmiy – ma'rifiy markazlardan hisoblanib, uning jamg'armasida 250 minga yaqin eksponat mavjud. Ular orasida numizmatika, arxeologiya, tangashunoslik va etnografiyaga oid ko'plab qimmatli jamlamalar bor.

O'zbekiston tarixi Davlat muzeyining yangi ekspozitsiyasi O'zbekiston hududida tarixiy-madaniy jarayonlarning eng qadimgi davrlardan boshlab hozirga qadar bo'lgan taraqqiyotini ashyoviy dalillar va tasviriy vositalar orqali namoyish etishga qaratilgandir. Umumiyligi qariyb ikki ming kvadrat metr bo'lgan binoning uchinchi va to'rtinchchi qavatini egallagan mazkur ekspozitsiyada o'n mingga yaqin eksponat joylashgan. Ularda o'zbek davlatchiligining shakllanishi tarixi, o'zbek xalqining boy an'analari va madaniyati ifoda etilgan.

Dastlabki ekspozitsiyadagi ibtidoiy tuzim davrini ifodalovchi eksponatlar O'zbekiston hududi Sharq tsivilizatsiyasining eng qadimgi o'choqlaridan biri bo'lganligidan guvohlik beradi. Dehqonchilik va chorvachilik asosida ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, dastlabki kimyoiy-texnologik bilimlar asosida hunarmandchilikni rivojlanishi, diniy tafakkur rivojida zardo'shtiylilikka asos solinishi, qadimiyligi Sharqning yuqori darajada rivojlangan markazlari bilan o'zaro madaniy aloqalar, murakkab ichki tuzilmalarga ega bo'lgan qal'a va ilk shaharlarning paydo bo'lishi yirik davlatlarning tashkil topishida katta rol o'ynadi. Dehqonchilik va chorvachilikning o'ziga xos rivoji va o'zaro bog'liqligi, O'zbekiston xalqlarining ahmoniyalar, grek – makedoniyaliklar va sosoniylarga qarshi kurashi, xorozmiylar, baqtriyaliklar, Farg'ona davlati hamda Kushon sultanati haqidagi ma'lumotlar ham juda yaxshi yoritilgan. Zallarda namoyish etilayotgan ajdodlarimizning eramizdan avvalgi va eramizning ming yilliklarida madaniyati yuqori bo'lganligini o'zida mujassam etgan ashyolar mazmun-mohiyatining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bularning ko'pchiligi dunyo madaniyati va san'atining bebaho namunalari hisoblanadi. Devor yozuvlari, haykaltaroshlik tasvirlari, buddaviylik mavzui bilan bog'langan me'morchilik ishlari ekspozitsiyadan alohida o'rinni olgan.

O'zbek xalqining o'rta asrlardagi buyuk madaniy merosi ham ekspozitsiyada o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, Temur va temuriylar davriga bag'ishlangan ekspozitsiyada Amir Temur sa'y- harakatlari natijasi o'larоq, fan va madaniyatning yuqori darajada rivojlanganligi haqida hikoya qiluvchi ko'plab eksponatlarni ko'rish mumkin.

XVIII-XIX asrlarda hunarmandchilikning yuksak darajada rivojlanganligi ekspozitsiyadagi sopol, kandakorlik mahsulotlari, Buxoro baxmallari va adreslari hamda zarduzlik san'ati namunalarida o'z aksini topgan. Shuningdek, mamlakatimizning keyingi taraqqiyoti, xususan, mustamlakachilik davridagi ozodlik uchun olib borilgan kurashlar, ma'rifatparvarlarimizning o'z vatanini ma'rifatli, farovan va ozod qilish uchun olib borgan kurashlari xaritalar, suratlar, rangtasvir vositalari orqali yorqin namoyon etilgan.

Muzeyning oxirgi ekspozitsiyasi mustaqillikka erishgan yutiqlari; (The last exposition of the museum is the achievements of independence:) O'zbekiston Respublikasining qisqa davr ichida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalaridagi erishgan ulkan yutuqlariga bag'ishlanadi. Salkam 31 yil davomida O'zbekiston jahonda o'zining munosib o'rnini topgan davlatlardan biriga aylandi. qisqasi, tarixiy taraqqiyot va madaniy rivojidagi uzviylik muzey vositalarida millatning bir butun yaxlit tarixi sifatida ko'rsatilgan.

Bugungi kunda yirik ilmiy-madaniy markazlardan biri hisoblangan O'zbekiston tarixi Davlat muzeyida o'zbek xalqining tarixi xolisona yaratildi. Lekin bir vaqtida vatanimizdan tashib ketilgan behisob va nodir yodgorliklarimizni boshqa muzeylarda ko'rganimizda, yuragimizdagi o'kinch va armonlarimiz qalbimizni tirnaydi.

Inson dunyoga bir marta keladi. Uning tomonidan bunyodga kelgan yaxshilik esa bir umr yoddan chiqmaydi. Chunki ezzgulik abadiydir. Zero, shunday ekan, biz ham o'z ajdodlarimiz kabi kelajak avlodga munosib meros qolirishimiz darkor. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: «Farzandlarimiz, kelajak avlodlar bizdan shu o'lkani, shu muqaddas zaminni yana ham boy, kuchli va qudratli holatda qabul qilib olishlari uchun, biz buyuk ajdodlarimizga nisbatan qanday minnatdorchilik tuyg'ularini his etayotgan bo'lsak, o'g'il-qizlarimiz, kelajak avlod ham bizga nisbatan shunday minnatdorchilik tuyg'ularini his etishlari uchun lozim bo'lgan hamma ishni qilish bizning fuqorolik burchimizdir».

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib shuni aytish joizki muzeylarni o'ziga xos xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish va kelajak avlodlarga o'rgatish bilan birga bu ma'lumotlarni yetqazishni taminlashdir. Muzeylar tarixni qayta o'rganish samaradorligini ta'millash uchun tarix o'qituvchilarni ma'lum bir darajada va ba'zi o'qituvchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi va tarixiy viqealarni, faktlar, odamlarni, va o'ziga xos tushunish va tushuntirish uchun bu ma'lumotlarni sharhlash, baholash, tahlil va sintez qilish darajada qobiliyatları va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi. Dars jarayonlarida tarixiy materiallar va manbardan (tarixiy hujjatlardan, tarixiy ashyolar, xaritalar, rasimlar va eksponatlarni asil o'zidan) foydalanish juda muhim va foydalilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov I.A Xalqimiz bor ekan. Amir Temur nomi hayotdir. Temuriylar tarixiy davlat muzeyining ochilish marosimida sozlangan nutq. 1996 yil 18 oktyabr. (Asarlar 5t.166-170 betlar).
2. Karimov I.A Olimpiya shon-shuxrati muzeyining ochilish marosimida sozlangan nutq. 1996 y.1 sentyabr. (Asarlar 5t.136-139 betlar).
3. Karimov I.A Buxoro shahrining 2500 yilligiga bagishlangan tantanali marosimda tabrik so'zi. 1997 y.1-oktyabr (Asarlar 6t.368-370-betlar).
- 4.Karimov I.A «Tarixiy xotirasiz kelajak yoq asarlar» (7t.132-154 betlar).
- 5.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yolimizni qat'iyat bilan davom etlirib, yangi bosqichga ko'taramiz.
- 6.O'zbekistoa 2017..6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Respublika Muzeylar faoliyatini yaxshilash tadbirlari to'g'risida»gi 1994 y. 23-dekabr qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi 1998 y. 12 yanvar Farmoni.
- 8.Sodikova N.S Muzeynoe delov O'zbekistone T. «Fan» 1975, 290 str.
- 9.Glass Yu.I Landal M. Muzey O'zbekistana. Tashkent, Gosizdat O'zbekistana, 1961. 76 str.
10. Jeltova G.M i drugie. Muzey-o'llkashunoslik praktikasi. T. «O'qituvchi» 1978.